

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYAT DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«Tasdiqlayman»
TVDPI o'quv metodik
kengash raisi
dots.U.N.Abdiyev.
«____»_____,
2005yil**

«O'zbek tili»fanidan ishchi dastur

Bilim sohasi: 100000-Ta'lim

**Ta'lim sohasi: 140000-O'qituvchilarni tayyorlash va
pedagogika fan.**

**Bakalavriat yo'nalishlari: v 140800-O'zbek tili
va adabiyoti.**

Angren - 2005

Annotatsiya:

O`zbek tili fanining mazmuni va vazifalari. Dastur rusiyzabon talabalarning o`zbekcha og`zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularni o`zbek tilining barcha bo`limlari bo`yicha zarur grammatik qoidalar bilan tanishtirish, o`zbek tilida o`z fikrini erkin va to`g`ri bayon etish ko`nikmalarini hosil qilish, o`zbek adabiyotining yirik namoyondalari hayoti va ijodi bilan tanishtirish maqsadini ko`zlaydi.

Tuzuvchi:

o`qituvchi D.Ko`lboyeva,

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi

Dotsent M.Xolboyeva

filologiya fanlari nomzodi dotsent

D.Lutfullayeva

F.Jumayev.

Ushbu ishchi dastur «Til va uni o'qitish metodikasi» kafedrasining 2005-il 26 avgustidagi ____ sonli majlisida mushokama qilingan _____ fakulteti ilmiy-metodik kengashining ____ yil ____dagi ____ sonli majlisida ma'kullangan, yamda TVDPI ilmiy-metodik kengashida ko'rib chiqildi va nashrga tavsiya qilingan. ____ yil ____dagi ____ sonli majlis bayoni

1. Soʻz boshi

Istiqlol yillarida barcha sohalarda boʻlgani kabi taʼlim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Davr talabi shunchaki bitiruvchilarni emas, balki yuqori malakali, erkin fikrlovchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat boʻlmoqda.

Hali sobiq ittifoq davrida qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat tili toʻgʻrisidagi» qonuni, shaxsan yurtboshimiz tashabbusi bilan va u kishining bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilayotgan «Taʼlim toʻgʻrisidagi» qonun va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi oʻzbek tilini boshqa millat vakillariga oʻrgatish bilan mashgʻul oʻqituvchi kadrlar oldiga ham yangi vazifalar qoʻymoqda.

Rus guruhilari talabalariga oʻzbek tilini oʻqitishdan maqsad ularni oʻzbek tilida oʻz fikrini erkin va ravon, toʻgʻri bayon etishga oʻrgatishdan iborat. Bu maqsadni bajarish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- talabalarni oʻzbek tilining: fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika va frazeologiya, morfemika, soʻz yasalishi, morfologiya va sintaksis, punktuatsiya boʻlimlari yuzasidan eng zarur qoidalar bilan tanishtirish;

- talabalarni olingan nazariy bilimlarni amalda erkin qoʻllay olish malakalari bilan qurollantirish;

- taʼlim jarayonida eng zamonaviy metodlarni qoʻllash asosida erkin sharoit yaratish va talabalarning til oʻrganishga qiziqishlarini oshirish;

- talabalarni oʻzbek adabiyotining eng yirik namoyandalari hayoti va faoliyati bilan tanishtirish;

- talabalarning bilim, malaka va koʻnikmalari ustidan obʼektiv nazorat olib borish;

Talabalarning bilim, malaka va koʻnikmalariga qoʻyiladigan talablar:

- oʻzbek tilining oʻziga xos jihatlari, uning rus tili bilan oʻxshash va farqli tomonlari;

- oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari va talaffuz meʼyorlari;

- oʻzbek tilida gap qurilishi va soʻz tartibi;

- oʻzbek adabiyotining eng yorqin siymolari hayoti va faoliyati;

- oʻzbek va rus tillaridan tarjima qilinganda eʼtibor berish zarur boʻlgan asosiy jihatlari (soʻz tartibi va sh.k.);

- uslubshunoslik haqida maʼlum tasavvurlarga ega boʻlish.

«Oʻzbek tili» fanini oʻqitishda talabaning Oʻzbek tili, Oʻzbekiston tarixi, Rus tili boʻyicha maktab kurslarida egallagan bilimlariga tayanish.

Talabalarning yozma nutqini nazorat qilish maqsadida diktant, yozma nazorat ishlari va sh.k. oʻtkazilishi koʻzda tutiladi.

Har bir amaliy mashgʻulot davomida muayyan matn ustida ish olib boriladi va tilshunoslik boʻlimlariga oid maʼlum nazariy bilim berilishi koʻzda tutiladi.

O`zlashtirish oson va samarali bo`lishini ko`zlab, imloga oid qoidalar boshqa bo`lim materiallari bilan qo`shib bayon etiladi.

Ta`lim sifatini oshirish uchun texnikaviy vositalar: audio-, video-, kino materiallari, komp'yuterlardan foydalanish, muzeylar, jumladan shoir va yozuvchilarning uy- muzeylariga sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

O`zbek tilini o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan, «Aqliy hujum», «Kartochkaning yarmini top» kabilardan, shuningdek, ikki til materialini qiyoslashda «Venn halqachalari», matn ustida ishlash, nazariy materiallarni o`rganishda «Insert», nutqiy mavzular ustida ishlaganda «Kaster kub» metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

«O`zbek tili» fani bo'yicha reyting jadvali

I semestr

T/r	Baholash turlari	Nazorat shakllari	Nazorat shakli Bo'yicha ballar	Nazorat shaklini O'tkazish vaqti
I.	JB	1. Mashg`ulotga qatnashishi. 2. Mashg`ulot mobaynidagi faolligi. 3. Daftar yuritishi. 4. G'oya himoyasi. 5. Mashqlar bajarishi.	1.Mashg`ulotlarga qatnashishi: $0.2 \times 32 = 6.4$ 2.Mashg`ulot mobaynidagi faolligi: $0.4 \times 32 = 12$ 3.Daftar yuritishi: $0.3 \times 32 = 9.6$ 6. G'oya himoyasi: $0.4 \times 32 = 12$ 5.Mashqlar bajarishi: $0.3 \times 32 = 9.6$	Amaliy mashg`ulotlari mobaynida
Jami	2	5	51 ball	
II	MI	1. Test savollari tuzish 2. Referat tayyorlash. 3. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash. 4. Amaliy va tajriba mashg`uloti ishlanmasi tuzish.	1. Test savollari tuzish 2. Referat tayyorlash. 3. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash. 4. Amaliy va tajriba mashg`uloti ishlanmasi tuzish. 5. Ilmiy maqolalar tayyorlash.	

		5. Ilmiy maqolalar tayyorlash.		
Jami		5	34 ball	
	YaB	Yozma ish	1.Yakuniynazorat savolnomasi	Mashg`ulot dan tashqari vaqtda
Jami	1	4 ta variant	15 ball	
Jami			100 ball	

II semestr

T/r	Baholash turlari	Nazorat shakllari	Nazorat shakli Bo'yicha ballar	Nazorat shaklini O'tkazish vaqti
I.	JB	7. Mashg`ulotga qatnashishi.</b> <b>8. Mashg`ulot mobaynidagi faolligi. 9. Daftar yuritishi. 10. G'oya himoyasi. 11. Mashqlar bajarishi.	1.Mashg`ulotlarga qatnashishi:</b> <b>0.2x32=6.4</b> <b>2.Mashg`ulot mobaynidagi faolligi: 0.4x32=12 3.Daftar yuritishi: 0.3x32=9.6 4.G'oya himoyasi: 0.3x32=9.6 5.Mashqlar bajarishi: 0.3x32=9.6	Amaliy mashg`ulotlari mobaynida
Jami	2	5	45 ball	
II	MI	6. Test savollari tuzish 7. Referat tayyorlash. 8. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash. 9. Amaliy va tajriba mashg`uloti ishlanmasi	6. Test savollari tuzish 7. Referat tayyorlash. 8. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash. 9. Amaliy va tajriba mashg`uloti ishlanmasi tuzish. 10.Ilmiy maqolalar	

		tuzish. 10. Ilmiy maqolalar tayyorlash.	tayyorlash.	
Jami		5	40 ball	
	YaB	Yozma ish	1.Yakuniynazorat savolnomasi	Mashg`ulot dan tashqari vaqtda
Jami	1	4 ta variant	15 ball	
Jami			100 ball	

Mashg`ulotlar mazmuni

№	Boblar bo'yicha ma'ruzalar nomi va mazmuni	Jami	Aud.soati	Ma'ruza soati	Amaliy mashg`ulot	Seminar mashg`uloti	Mustaqil ta`lim	JB,OB,YaB.	Vaqt
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.	“Mustaqillik – g`urur va</b> <b>mas`uliyat” suhbat		2		2				
2.	O`zbek tili fonetikasi. Nutq</b> <b>tovushlari. Urg`u. Bo`g`in. Ohang.		2		2		4		
3.	Leksika. Lug`aviy ma`no. To`g`ri va ko`chma ma`no. “Vatan” matni. (T.Sodiqovadan)		2		2		4		
4.	So`zlarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlari.</b> <b>“O`zbekiston” she`ri ustida ishlash. (S.Soliyevdan.)		2		2		2		
5.	Ibora. Frazelogik antonimiya. Sinonimiya. Ononimiya. «Birinch o`qituvchim» matni.		2		2		2		
6.	So`z tarkibi. O`zak va qo`shimcha.</b> <b>Qo`shimchalarning turlari.		2		2		2		

7.	Ot.Otning ma'no turlari. Ot yasalishi. Otlarda kelishik va son. Matnlardan foydalanish.		2		2		4		
8.	Sifat. Sifat predmet belgisini ifodalovchi so'z turkumi. «Muqimiy» matni.		2		2				
9.	Son. Sonning ma'no turlari va ularni hosil qiluvchi qo'shimchalar. «Baxtimiz qomusi» matni.		2		2				
10.	Olmosh. Olmoshlarning ma'no turlari. «Sevgi» she'ri. E.Vohidov.		2		2				
11.	Fe'l. Harakat va holat fe'llari. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni" matni.		4		4		4		
12.	Sifatdosh. Ravishdosh. Harakat nomi. «O'zbekiston shaharlari» matni. Sayohat darsi		4		2				
13.	Ravish.Ravishning ma'no turlari. « Qari bilganni pari bilmas»		2		2		2		
14.	Yordamchi so'zlar . Matnlar ustida ishlash.		2		2		3		
15.	Yakunlovchi dars. O'tilganlar bo'yicha takrorlash.		2		2				
Sintaksis 34 soat									
1.	Sintaksis. So'z 'irikmasi. «Imom al- Buxoriy» matni		2		2		2		
2.	Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar. «Amir Temur» matni		2		2				
3.	Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. «Muhammad Yusuf» matni.		2		2				
4.	Qo'shma gap. Qo'shma gap turlari. «Milliy sportimiz ravnaqi» matni		2		2		3		
5.	Bog'lovchisiz qo'shma gap. «Davlat tili» haqida matn.		2		2				

6.	Ko`chirma gap va o`zlashtirma gap.		2		2				
7.	O`zbek tili uslublari. Og`zaki, so`zlashuv va badiiy uslub.		4		2		4		
8.	Rasmiy ish qog`ozlari. Sayohat darsi.		2		2		2		
9.	Ilmiy uslub		2		2				
10	Gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlari.		2		2		3		
11.	Gap bo`laklari. «O`zbek maqollari» matni.		2		2				
12.	Gap bo`laklari tartibi. «Abdulla Qodiriy» matni.		2		2				
13.	Undalma va kiritmalar. “O`tganlarning ruhini shod etib” matni		2		2				
14.	Ergashgan qo`shma gap. “Abdulla Avloniy” matni.		2		2		3		
15.	Punktuatsiya. O`tilgan mavzular yuzasidan yozma ish		2		2		2		
16.	O`tilgan mavzular yuzasidan takrorlash.		2		2				
	Jami:								

Amaliy mashg`ulot mavzulari mazmuni.

1-mavzu: «Mustaqillik- g`urur va mas`uliyat» suhbat.(2 soat)

O`zbek va rus tillarining o`xshash va farqli jihatlari.Bu farqlar ularning ikki oila Oltoy va Hind – Yevropa tillari guruhiga mansubligi. Rus tili flektiv, o`zbek tili aglyutinatativ til ekani. So`z turkumlari soni bir xil bo`lsa-da, grammatik kategoriyalarda farqlar mavjudligi va sh.k.

2-mavzu: O`zbek tili fonetikasi. Nutq tovushlari. Urg`u. Bo`g`in. Ohang.(2 soat). So`zlarni bo`g`inlarga ajratish, so`zlarning birinchi bo`g`iniga urg`u qo`yish.

3-mavzu: Leksika. Lug`aviy ma`no.To`g`ri va ko`chma ma`no (92 soat) T. Sodiqovanning «Vatan» matnidagi lug`aviy ma`nolarni aniqlash.

**4-mavzu: So`zlarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlari. (2 soat)** Sinonim, antonim, omonim, paronimlar S.Soliyevning «O`zbekiston» she`ri ustida ishlash.

5-mavzu: Ibora. (2soat). Frazelogik antonimiya, frazeologik sinonimiya, omonimiya. «Birinchi o`qituvchim» matni ustida ishlash.

6-mavzu: Soʻz tarkibi. Oʻzak va qoʻshimcha. Qoʻshimchalarning turlari soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalar, ularning joylashish tartibi.

7-mavzu: Ot. Otning maʼno turlari; narsa-qurol, shaxs, joy, payt va kasb-hunar otlari. Mavhum otlar. Ot yasalishi. Otlarda kelishik va son. Matnlardan foydalanish.

8-mavzu: Sifat. Sifat darajalari. Sifatlarning otlashishi.(2 soat) Oʻzbek tilida otlashgan sifatlarga kelishik, koʻplik shakliga ega boʻla olishi, qoʻshimcha qoʻshib sifat yasash. Oʻzaklarni qoʻshib sifat yasash. Qoʻshma sifatlarning yozilishi. «Baxtimiz qomusi» matni ustida ishlash.

9-mavzu: Son. Sonning maʼno turlari va ularni hosil qiluvchi qoʻshimchalar.(2 soat) “Baxtimiz qomusi”matni.

10-mavzu: Olmosh. Olmoshlarning maʼno turlari. Kishilik va oʻzlik olmoshlari. Koʻrsatish olmoshlari. Soʻroq olmoshlari. Belgilash, boʻlishsizlik va gumon olmoshlarining soʻroq olmoshlaridan yasalishi. E.Vohidovning “Sevgi” sheʼri.

11-mavzu: Feʼl. Harakat va holat feʼllari. Boʻlitshli va boʻlishsiz feʼllar. Boʻlishsiz feʼl shaklining yasalishi.

- *ma* qoʻshimchasi yordamida, bu qoʻshimcha feʼlga har qanday qoʻshimchadan oldin qoʻshilishi; *emas*, *yoʻq* soʻzlari yordamida; - *na* yuklamasi yordamida. “Mardlar qoʻriqlaydi Vatanni” matni.

12-mavzu: Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi (4 soat) Oʻtgan, hozirgi hozirgi-kelasi va kelasi zamon sifatdoshlari. Ravishdosh yasovchi qoʻshimchalar. Harakat nomi, uning boʻlishli va boʻlishsiz shakllari. «Davlat tili» haqida matn. (134- bet) Shahar “Oʻlkashunoslik” muzeyiga sayohat.

13-mavzu: Ravish. Ravishning maʼno turlari. (2 soat) Ravishlarda daraja koʻrsatkichi. Ravishning otlashishi. “Qari bilganni, pari bilmas” matni.

14-mavzu: Yordamchi soʻz turkumlari (2soat) Koʻmakchi. Bogʻlovchi. Yuklama. Bogʻlovchilarning vazifasiga koʻra turlari. Koʻmakchi turlari; asl, ot va feʼl koʻmakchilar. Yuklamalarning maʼno turlari; soʻroq va taajjub, ayiruv-chegaralov, taʼkid-kuchaytiru va h.k.

15-mavzu: Yakunlovchi dars. Oʻtilganlarni mustahkamlash. (2 soat)

16- mavzu: Sintaksis (2 soat) Soʻz birikmasi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi. Sintaktik aloqa turlari. Teng bogʻlanish. Tobe bogʻlanish: moslashuv, boshqaruv, bitishuv. « Imom al-Buxoriy» matni.

17- mavzu: Gap boʻlaklari (2 soat) Bosh boʻlaklar. Ega va uning ifodalanishi. Kesim va uning ifodalanishi. Kesim turlari. «Amir Temur» matni.

18-mavzu: Ikkinchi darajali boʻlaklar. (2 soat) Aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol. «Muhammad Yusuf» matni.

19-mavzu: Qoʻshma gap (2 soat) Qoʻshma gap turlari. Bogʻlangan qoʻshma gap. Bogʻlangan qoʻshma gapda tinish belgilarining ishlatilishi. Ergashgan qoʻshma gaplar. «Milliy sportimiz ravnaqi» matni.

20-mavzu: Bogʻlovchisiz qoʻshma gap (2 soat) «Davlat tili» haqida matn.

21- mavzu: Koʻchirma gap va oʻzlashtirma gap (2 soat)

22- mavzu: Oʻzbek tili uslublari. (4 soat) Ogʻzaki, soʻzlashuv va badiiy uslub.

23- mavzu: Rasmiy ish qogʻozlari. (2 soat) Sayohat darsi.

24- mavzu: Ilmiy uslub (2 soat)

25-mavzu: Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (2 soat) Darak, so'roq, buyruq gaplar.

26-mavzu: Gap bo'laklari (2 soat) «O'zbek maqollari» matni.

27-mavzu: Gap bo'laklari tarkibi. (2soat) «Abdulla Qodiriy» matni.

28-mavzu: Undalma va kiritmalar (2 soat) «O'tganlarning ruhini shod etib» matni.

29-mavzu: Ergashgan qo'shma gap. “Abdulla Avloniy” matni.

30-mavzu: Punktualsiya (2 soat). Tinish belgilarining ishlatilish o'zni. Yozma ish.

31-mavzu: O'tilgan mavzular yuzasidan takrorlash. Yakunlovchi mashg'ulot. 2 soat.

Mustaqil ish mavzusi va mazmuni.

1-mavzu. Fonetika bo'limiga oid jadval tuzish. Nutq tovushlarining hosil bo'lish usuliga, talaffuz o'rniga, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra unli va undosh fonemalar yuzasidan. 4 soat.

2-mavzu. Leksikologiya bo'limi yuzasidan «Grammatik qoidalar» mavzusi bo'yicha referat tayyorlash. 2 soat.

3-mavzu. So'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolari yuzasidan lug'at tuzish. 2 soat.

4-mavzu. So'z tarkibi. O'zak va qo'shimchalar, qo'shimchalarning turlari, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar, ularning joylashish tartibi yuzasidan tarqatmalar tayyorlash. 2 soat.

5-mavzu. Morfologiya bo'limi bo'yicha test tuzish. Mustaqil va yordamchi so'z turkumlari. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar. 4 soat.

6-mavzu. Yordamchi so'z turkumlariga badiiy asarlardan misollar topib, tarqatmalar tayyorlash. Bog'lovchi va uning turlari, yuklama va uning turlari, ko'makchi va uning turlari. 3 soat.

7-mavzu. Morfemika bo'limi bo'yicha jadval tuzish. 2 soat.

8-mavzu. Paronim so'zlar lug'atini tuzish. 2 soat.

II semestr uchun mustaqil ish mavzusi va mazmuni.

1-mavzu. Ravish so'z turkumiga oid krossvord tayyorlash. 2 soat.

2-mavzu. Fe'l so'z turkumi bo'yicha referat tayyorlash. 4 soat.

3-mavzu. Sintaksis bo'yicha tarqatma materiallar tayyorlash. 2 soat.

4-mavzu. Badiiy asarlardan fonetik hodisalarga misollar to'plash. Tovush almashishi, tovush tushushi, tovush orttirilishi hodisalarini tushuntirish. 3 soat.

5-mavzu. Ot so'z turkumi bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash. Atoqli va turdosh otlar, otlarning ma'no turlari, otning grammatik kategoriyalari, otlarning yasalishi. 4 soat.

6-mavzu. Sodda va qo'shma gaplar ishtirok etgan davr axboroti tayyorlash va ular tarkibidagi gaplarni sintaktik tahlil qilish. 3 soat.

7-mavzu. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi yuzasidan referat tayyorlash. Darak gap, so'roq gap, buyruq gap. 3 soat.

8-mavzu. Ergashgan qo'shma gaplar yuzasidan konspekt yozish. 2 soat.

9-mavzu. Ko'chirma gap va o'zlashtirma gaplar yuzasidan referat tayyorlash. 2 soat.

10-mavzu. Rasmiy ish qog'ozlari bo'yicha namunalar tayyorlash. 2 soat.

3. ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. Rasulov R. va b. «O'zbek tili» (Oliy o'quv yurti rus guruhi talabalari uchun). Darslik. T., 2003.

1. Axmedova G. va b. «O'zbek tili». (Oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlari uchun). T. 2001.

2. Abdurahmonov X. va b. «O'zbek tili». T. O'qituvchi. 1995.

3. Usmonova M. va b. «O'zbek tili». Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T. O'qituvchi. 1991.

4. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR.

4. Sodiqova S. O'zbekcha – ruscha frazeologik lug'at. T. O'qituvchi. 1995.

5. Sodiqova T. Mehr qolur. T. 1998.

6. Soliev S. Ko'rgim kelur. T. 1997.

7. Qodirov P. Yulduzli tunlar. T. 1995.

8. Abadiyat farzandlari. T. 1995.

9. Istiqlof fidoyilari. T. 1997.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYAT DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«Til va uni o'qitish metodikasi»
kafedrasi 2005-2006 o'quv yili**

**«O'ZBEK TILI» FANIDAN
TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONI
(I, II semestr, I kurs kunduzgi bo'lim)**

**Kafedraning ____ sonli qarori («____»____) bilan
tasdiqlangan.**

**Kafedra mudiri: F.Jumayev.
Tuzuvchi: D. Ko'lboyeva.**

ANGREN-2005

UMUMIY MA'LUMOT

O'quv rejasiga muvofiq I semestr, I kursda o'qitiladigan «O'zbek tili» faniga ajratilgan soatlar:

Jami: 114 soat

Shundan:

Amaliy mashg'ulot: 68 soat

Mustaqil ish: 46 soat

Semestrlar bo'yicha: I semestrda o'tiladi.

I kurs, I semestrda jami: 55 soat

Amaliy mashg'ulot - 34 soat

Mustaqil ish - 21 soat

I kurs, II semestrda jami: 59 soat

Amaliy mashg'ulot - 34 soat

Mustaqil ish - 25 soat

Reyting nizomi asosida belgilangan maksimal ball: 100 ball

Baholash turlari va shakllari:

Talabanning har bir semestr bo'yicha o'zlashtirishini baholash har bir semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlari orqali olib boriladi:

- Joriy baholash (JB)
- Oraliq baholash (OB)
- Yakuniy baholash (YaB)

Joriy baholash amaliy mashg'ulot va mustaqil ish darslarida o'tkaziladi. Joriy baholash amaliy, tajriba mashg'uloti, mustaqil ish uchun belgilangan o'quv soatini talabanning o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichiga (K) ko'paytirish asosida aniqlanadi. O'quv rejasida 1 kursda «O'zbek tili» fanidan tajriba mashg'uloti belgilanmagan. Demak, JB amaliy va mustaqil ish mashg'ulotida amalga oshiriladi.

Talabanning o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi (K) quyidagicha aniqlanadi:

$$K=85/(a_1+a_2+a_3+a_4+a_5)$$

I semestrda «O'zbek tili» fanidan talabanning o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi (K) quyidagicha:

$$K=85/34(\text{amaliy})+21(\text{mustaqil ish})=1.5 \text{ ball}$$

II semestrda «O'zbek tili» fanidan talabanning o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi (K) quyidagicha:

$$K=85/34(\text{amaliy})+25(\text{mustaqil ish})=1.44 \text{ ball}$$

Reyting Nizomiga muvofiq JB bali quyidagicha belgilanadi: $K \times (a_4 + a_5)$

I semestrda JB bali – $1.6 \times 53 = 85$ ball

II semestrda JB bali – $1.5 \times 57 = 85$ ball

JB har bir semestrda 2 martadan 6 soat o'quv mashg'ulotidan so'ng o'tkaziladi.

JBda talabaga ball qo'yishda uning faolligi, mashq bajarishi, tahlil, test kabi nazorat topshiriqlarini bajarishi, tajriba mashg'uloti ishlanmasi, mavzu bo'yicha o'tkaziladigan savol-javob, munozaralarda qatnashuvi, mavzuga oid bajargan mustaqil ishlariga: yozgan referat, konspekti, tuzgan tarqatma materiallari, test savollari ishlanmasi, ko'rgazmali quroli, rebusi, krossvordi kabilarga ball qo'yiladi.

«O'zbek tili» fanidan faqat amaliy mashg'ulot va mustaqil ish soatlari belgilangani uchun, OB ishi o'tkazilmaydi.

Reyting Nizomiga muvofiq «O'zbek tili» fani bo'yicha har bir semestrda YaB ga 15 ball ajratiladi.

YaB bosqichida nazariy bilimlarga oid tayanch tushunchalar asosida yozma ish, test, og'zaki so'rov, diktant kabi nazorat shakllaridan biri o'tkaziladi. YaB mashg'ulotdan tashqari vaqtda belgilangan muddatda o'tkaziladi.

“O'zbek tili” fani bo'yicha I semestrlarda YaB da yozma ish o'tkaziladi. Yozma ish variantlari ilova qilinadi.

II semestrda YaBda og'zaki nazorat o'tkaziladi. Variant savollari ilova qilinadi.

«O'zbek tili» fani bo'yicha reyting jadvali

I semestr

T/r	Baholash turlari	Nazorat shakllari	Nazorat shakli Bo'yicha ballar	Nazorat shaklini O'tkazish vaqti
I.	JB	1. Mashg'ulotga qatnashishi. 2. Mashg'ulot mobaynidagi faolligi. 3. Daftar uritishi. 4. G'oya himoyasi. 5. Mashqlar bajarishi.	1. Mashg'ulotlarga qatnashishi: 0.2x34=6.8 2. Mashg'ulot mobaynidagi faolligi: 0.3x34=10.2 3. Daftar yuritishi: 0.3x34=10.2 4. G'oya himoyasi: 0.4x34=13.6 5. Mashqlar bajarishi: 0.3x34=10.2	Amaliy mashg'ulotlari mobaynida
Jami	2	5	51 ball	
II	MI	1. Test savollari tuzish 2. Referat tayyorlash. 3. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma	1. Test savollari tuzish 2. Referat tayyorlash. 3. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma	

		materiallar tayyorlash. 4. Amaliy va tajriba mashg'uloti ishlanmasi tuzish. 5. Ilmiy maqolalar tayyorlash.	materiallar tayyorlash. 4. Amaliy va tajriba mashg'uloti ishlanmasi tuzish. 5. Ilmiy maqolalar tayyorlash.	
Jami		5	34 ball	
	YaB	Yozma ish	1.Yakuniy nazorat savolnomasi	Mashg'ulot dan tashqari vaqtda
Jami	1	4 ta variant	15 ball	
Jami			100 ball	

II semestr

T/r	Baholash turlari	Nazorat shakllari	Nazorat shakli Bo'yicha ballar	Nazorat shaklini O'tkazish vaqti
I.	JB	1. Mashg'ulotga qatnashishi. 2. Mashg'ulot mobaynidagi faolligi. 3. Daftar yuritishi. 4. G'oya himoyasi. 5. Mashqlar bajarishi.	1.Mashg'ulotlarga qatnashishi: $0.2 \times 34 = 6.8$ 2.Mashg'ulot mobaynidagi faolligi: $0.3 \times 34 = 10.2$ 3.Daftar yuritishi: $0.3 \times 34 = 10.2$ 12. G'oya himoyasi: $0.3 \times 34 = 10.2$ 5.Mashqlar bajarishi: $0.3 \times 34 = 10.2$	Amaliy mashg'ulotlari mobaynida
Jami	2	5	48.9	
II	MI	1. Test savollari tuzish 2. Referat tayyorlash. 3. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar	1.Test savollari tuzish 2. Referat tayyorlash. 3. Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlash. 4. Amaliy va tajriba mashg'uloti ishlanmasi tuzish.	

		tayyorlash. 4. Amaliy va tajriba mashg'uloti ishlanmasi tuzish. 5. Ilmiy maqolalar tayyorlash.	5. Ilmiy maqolalar tayyorlash.	
Jami		5	36 ball	
	YaB	Og'zaki so'rov	1.Yakuniynazorat savolnomasi	Mashg'ulot dan tashqari vaqtda
Jami	1	20 ta variant	15 ball	
Jami			100 ball	

Talabani boshlovchi bilimni baholash tartibi:

85 % dan 100 % gacha –«a'lo»

71% dan 85 % gacha – «yaxshi»

55 % dan 71 % gacha – «qoniqarli»

0 dan 55 % gacha – «qoniqarsiz»

«O'zbek tili» fanidan I semestr uchun yozma ish variantlari

I variant

Samarqandning noni.

Aytishlaricha, bir zamonlar Bog'dod podsholaridan biri Samarqandning noniga havas qilib, o'z poytaxtida ham shunday mazali non yopishni yo'lga qo'yimoqchi bo'libdi. Shu maqsadda Samarqanddan eng mashhur nonvoyni chaqiribdi. «Bog'dod zaminida ham Samarqanddagidek shirin non yopish uchun nima zarur bo'lsa, barchasini muhayyo qilinglar», debdi podsho o'z vazirlariga. Samarqandlik usta o'z shahridan tuproq olib kelib, loy qorib, tandir yasash lozimligini aytibdi. Uning aytgani ado etilibdi. Usta Samarqanddan o'tin olib kelishlari zarurligini bildiribdi. Bu istak ham bajarilibdi. Samarqand suvi va unidan olib kelinib, xamir qoribdi. Xullas, hamma narsa taxt qilinibdi. Bularning hammasidan podshoni xabardor qilibdilar. Podsho nonvoyni oldiga chorlab, «Xo'sh, kerakli narsalarning hammasi tayyormi, bo'lmasa ishni boshla!» debdi. Shunda nonvoy uzr so'rab, «Hazratim, hali hamma narsa taxt bo'lgani yo'q», debdi. Podshoning jahli chqib, «Senga yana nima kerak, hamma narsa taxt-ku?» debdi. Nonvoy avval boshdanoq podshoning istagini amalga oshirib bo'lmasligini ham tushunar ekan. «Bu ishning imkoni yo'q» desa, uning

boshi tanidan judo qilinishi hech gap emas edi. Shuning uchun podshoning o'zi bu ishning imkonsiz ekaniga ishonch hosil qilsin, degan niyatda nonvoy oxirgi shartni aytib, shunday debdi: «Hazratim, endi yana Samarqandning havosi bilan Samarqandning quyoshi bo'lsa, bas, boshqa hech narsa kerak emas. Ana shundan keyin non yopishni boshlasam bo'ladi». Shunday deb, nonvoy ham jazodan, ham imkonsiz ishni amalga oshirish azobidan qutilib qolibdi. (216 ta so'z)

II variant

OILA – VATAN TIMSOLI

Vatan va ona haqda ko'p hikmatlar, dono gaplar aytilgan, she'rlar yozilgan.

Oilaning yana bir asosi otadir. Ota – oila boshlig'i, xonadonni boshqarib turadigan, uyiga, ro'zg'origa adolat timsoli bo'lib, barchaga ibrat va namuna ko'rsatadigan zotdir. Qadimda biror-bir farzand yaxshi yoki yomon xulqi bilan jamoatchilik e'tiborini tortsa, darhol undan «Otang kim, kimning bolasisan?» deb so'raganlar. Chunki otaning kimligiga qarab, farzandning fazilatlarini aniqlash mumkin bo'lgan. Odatda, o'g'il bolalar otaga, qizlar esa onaga taqlid qilgan, ulardan namuna olgan. Shuning uchun o'g'illar haqida gap ketganda «Shu otaning o'g'li-da», desalar, qizlar haqida gap ketganda esa, «Onasini ko'rib, qizini ol» deydilar.

Bizning milliy an'analarimizga ko'ra, farzand voyaga yetib, mustaqil hayotga qadam qo'ygunicha otadan beso'roq, bemaslahat biror-bir ish qilmaydi. «Ota rozi-xudo rozi» degan hikmat ham shundan dalolat beradi. Biror-bir muammo paydo bo'lsa, o'g'li otaga, qizlar onaga o'z sirini aytib, maslahat so'raydi.

Oilada «ota kasbi» degan tushuncha bor. Buni o'zing ham ko'p eshitgandirsan. Bu farzandlar tomonidan ota kasbining davom ettirilishini anglatadi. Qaysidir farzand o'z otasi kasbini egallasa, el-ulus «Otasining qo'lini olibdi», «Ota ishining davomchisi bo'libdi, barakalla», deya alqab qo'yadi. Biror-bir kasb sohasining rivojida, yurt taraqqiyotida bunday an'ana muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir kasbning sir-asrorini o'sha hunarning ustasi bo'lgan odamning farzandlari tez egallaydi. Negaki, buning uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikma qon orqali, yuqorida aytganimizdek, ota-onaning tuygulari orqali o'tadi. Ota kasbini sadoqat bilan davom ettirish tufayli turli kasb sohalari bo'yicha mashhur sulolalar yetishib chiqqan. Yurtimizda ham, xorijiy davlatlarda ham o'z oilasining dovrug'ini butun olamga yoygan ana shunday sulolalar juda ko'p. (250 ta so'z)

III variant

BOBUR

Men senga Bobur haqida ilgari ham ba'zi narsalarni hikoya qilgan edim. U Temur naslidan edi. Bobur dunyodagi eng dilbar va ma'rifatli insonlardan biri bo'lgan. U tor mazhabchilik va diniy aqidaparastlik qarashlardan holi edi. Gullarni

va bog'larni sevardi, Hindiston jazirasida o'zining O'rta Osiyodagi vatanini tez-tez eslab turardi. Bobur Samarqand hukmdori bo'lganda 11 yashar bola edi. Bu vazifani uddalash uncha-muncha katta odamning ham qo'lidan kelmas edi. Uning atrofini dushmanlar qurshab olgandi.

Yosh o'g'il bolalar va qizlar maktabda o'qib? o'ynaydigan shu yoshda u qo'lga qilich olib, jang maydonlarida kurashlar olib bordi. U o'z taxtini boy berib, uni yana qaytadan qo'lga kiritdi va o'zining dolg'ali hayotida qanchadan-qancha sinovlarga duch keldi. Shunga qaramay, adabiyot, she'riyat va san'at bilan shug'ullanishga vaqt topdi. Yoshlik shijoati uni tinch yashashga qo'ymas edi. Yosh shashzoda Qobulni zabt etgach, Hindikush tog'idan oshib, Hindistonga bostirib kirdi. Uning lashkari uncha ko'p emas edi, lekin unda o'sha paytlari Yevropa va G'arbiy Osiyoda qo'llana boshlagan yangi rusumdagi zambaraklar bor edi. Ushbu jangda unga qarshi kurashdan behisob jangari to'dalar ana shu yaxshi o'rgatilgan kamsonli lashkar tomonidan zambaraklar yordamida batamom tor-mor etiladi va Bobur zafar qozonadi.

Bobur 1530-yilda, qirq to'qqiz yoshida vafot etdi. Uning o'limi haqida mashhur bir rivoyat bor. Aytishlaricha, uning to'ng'ich o'g'li Humoyun og'ir betob bo'lib qolibdi-yu tabiblar dardiga hech bir davo topolmabdi. Shunda Boburning maslahatchilari yaxshi narsalardan xudo yo'lga qurbonlik qilish kerak, deb kengash beribdi. Boburning otalik mehri jo'sh urib, «Muhammad Humoyunning mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q, men o'zim tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsin» deb, o'z joni evaziga o'g'lining umrini tilashga qaror qilibdi. Shunday azmu qaror bilan Humoyun yotgan xonaga kirib, uch marotaba uni aylanib, «Men ko'tardim har ne darding bor», debdi. Shu lahzadan boshlab Humoyun sog'ayibdi, Bobur esa holdan toyibdi va bir necha kundan keyin vafot etibdi.

Boburning jasadini Qobulga olib borib, uning o'zi yaxshi ko'rgan bog'da dafn etadilar. Nishoyat, u o'zi sog'ingan gullar diyoriga qaytadi.

IY variant

BIZ-BUYUK MA'NAVIYAT EGASIMIZ.

Aziz vatandosh, buyuk tarixga ega bo'lgan xalqning ma'naviyati ham ulug' va beqiyos bo'ladi. Chunki yuksak ma'naviyatga ega bo'lmagan xalq o'zining betakror tarixini yaratolmaydi.

Ma'lumki, insondan boshqa jonzotlar o'ylash, fikrlash ko'nikmasiga ega emas. Shuning uchun ularni ma'naviyatli deya olmaymiz.

Inson moddiy va ma'naviy ehtiyojlar bilan tirik. Uning vujudi moddiy olam qonuniyatlari bilan yashasa, qalbi va ongi, shuuri ma'naviy olam qonuniyatlari bilan nafas oladi. Masalan, ovqat yeyish, badan tarbiyasi bilan shug'ullanish-moddiy olam qonuniyatlariga bo'ysunish alomatlaridir. O'ylash, fikrlash, ishonish, zavqlanish, go'zallikni sevish - bularning barchasi ma'naviy olam qonuniyatlaridan dalolatdir. Mukammal inson bo'lish uchun ham moddiy, ham ma'naviy olam qonuniyatlari asosida yashash lozim bo'ladi. Buning uchun odam o'zidagi moddiy va ma'naviy ehtiyoj hamda mayllarni boshqara olishi zarur.

Demak, inson hayotining mohiyatini tashkil etadigan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni bir-biridan ustun qo'yib bo'lmaydi. Qayerdagi moddiy intilishlar

kuchayib ketsa, odamlar ma'naviy qiyofasini yo'qota boshlaydi, ular o'zaro hurmat, go'zallikni qadrlash, haqiqatga ishonch kabi fazilatlar yo'qoladi. Aksincha, faqat ma'naviy intilishlar bilan ham yashab bo'lmaydi. Chunki bunday hayot odamlarning moddiy taraqqiyotdan orqada qolib ketishiga, maktab, kutubxona, teatr, muzey kabi ilm-ma'rifat maskanlari qurishga mablag' topolmay oxir-oqibatda ruhiy jihatdan qashshoq bo'lib qolishga olib keladi. Sobiq sho'ro davrida ma'naviyat va moddiyat masalasiga biryoqlama qarab kelindi. Kommunistlar moddiy ne'matlarning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini mutlaqo rad etishga, hammaning qashshoqlik kayfiyati bilan yashashini ta'minlashga harakat qilar edi. Shu bilan birga, ular inson ma'naviyatining ham to'laqonli ro'yobga chiqishiga yo'l bermas edi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin Prezident Islom Karimov inson hayotida moddiy boyliklar ham, ma'naviy boyliklar ham katta ahamiyatga ega ekanini, ularning birini ikkinchidan ustun qo'yib bo'lmasligini asoslab berdi va jamiyatimizda ham ana shu mezonga amal qilish lozimligiga e'tiborni qaratdi.

(250 ta so'z)

«O'zbek tili» fanidan II semestr uchun YaN variant savollari.

Variant

1. «Mustaqillik-g'urur va mas'uliyat» matni tuzish.
2. «O'zbek tili fonetikasi». Nutq tovushlari. Urg'u. Bo'g'in, ohang.

Variant

1. «Vatan» matni.
2. Sinonim, antonim, omonim, paronim so'zlar.

Variant

1. « Birinchi o'qituvchim» matni.
2. Ot. Otning ma'no turlari.

Variant

1. « Muqimiy» matni.
2. Sifat. Sifat darajalari.

Variant

1. «Baxtimiz qomusi» matni
2. Son. Sonning ma'no turlari

Variant.

1. «Abdulla Avloniy» matni.
2. Olmosh. Olmoshlarning ma'no turlari.

Variant

1. «Davlat tili haqida» matni.
2. Fe'l. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.

Variant

1. «Imom Ismoil al – Buxoriy» matni.
2. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari; A) aniqlovchi,b) to'ldiruvchi,v) hol.

Variant

1. «Muhammad Yusuf» matni.
2. Qo'shma gap. Qo'shma gap turlari.
Variant
 1. «Milliy sportimiz ravnaqi» matni
 2. Ko'chirma gap va o'zlashtirma gap.
Variant
 1. «Abdulla Qodiriy» matni
 2. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.
Variant
 1. «O'tganlarning ruhini shod etib» matni.
 2. Gap bo'laklari tartibi.
Variant
 1. «O'zbekiston shaharlari» matni.
 2. Undalma va kiritmalar.
Variant
 1. «Qari bilganni, pari bilmas» matni.
 2. Ariza va uning turlari.
Variant
 1. «Alisher Navoiy» matn.
 2. Bog'lovchisiz qo'shma gap.
Variant
 1. «Abdulla Oripov» matn.
 2. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar, ega va uning ifodalanishi.
Variant
 1. Zahridin Muhammad Bobur matni.
 2. Qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap.
Variant
 1. Erkin Vohidov matni.
 2. Ko'chirma gap haqida ma'lumot.
Variant
 1. «Amir Temur» matni.
 2. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.
Variant
 1. «Adabiyot muzeyi» matni
 2. So'z birikmasi. Gapda so'zlarning bog'lanishi.

3. ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. Rasulov R. va b. «O'zbek tili» (Oliy o'quv yurti rus guruhi talabalari uchun). Darslik. T., 2003.
1. Axmedova G. va b. «O'zbek tili». (Oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlari uchun). T. 2001.
2. Abdurahmonov X. va b. «O'zbek tili». T. O'qituvchi. 1995.

4. Usmonova M. va b. «O`zbek tili». Oliy o`quv yurtlari uchun darslik. T. O`qituvchi. 1991.

4. QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR.

4. Sodiqova S. O`zbekcha – ruscha frazeologik lug`at.

T. O`qituvchi. 1995.

5. Sodiqova T. Mehr qolur. T. 1998.

6. Soliyev S. Ko`rgim kelur. T. 1997.

7. Qodirov P. Yulduzli tunlar. T. 1995.

8. Abadiyat farzandlari. T. 1995.

9. Istiqlol fidoyilari. T. 1997.